

**SHAHODAT ISAXONOVANING “BIBIXONIM” ROMANIDA BIBIXONIM
OBRAZINING BADIY TALQINI**

Bazarboyeva Madina Abdulla qizi,

Nukus davlat pedagogika instituti 1-kurs tayanch doktoranti

bazarboyevamadina@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18902860>

***Annotaciya.** Mazkur maqolada Shahodat Isaxonovanning “Bibixonim” romanida markaziy qahramon — Bibixonim obrazining badiiy talqini tahlil qilinadi. Muallifning obraz yaratish mahorati, tarix va badiiyat uygʻunligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.*

***Kalit soʻzlar:** Bibixonim, Shahodat Isaxonova, tarixiy roman, badiiy talqin*

***Abstract.** This article analyzes the artistic interpretation of the central character — Bibixonim — in the novel “Bibixonim” by Shahodat Isaxonova. It examines the author’s skill in character creation and provides a scholarly and theoretical substantiation of the harmony between history and artistic expression in the work.*

***Keywords:** Bibixonim, Shahodat Isaxonova, historical novel, artistic interpretation.*

***Аннотация.** В данной статье анализируется художественная интерпретация центрального образа — Бибиixonим — в романе «Бибиixonим» Shahodat Isaxonova. Рассматривается мастерство автора в создании образа, а также научно-теоретически обосновывается гармония истории и художественного вымысла в произведении.*

***Ключевые слова:** Бибиixonим, Шахадат Исахонова, исторический роман, художественная интерпретация.*

Shahodat Isaxonovanning “Bibixonim” romani oʻzbek adabiyotida tarixiy shaxs obrazini yangicha badiiy talqin qilishga qaratilgan asarlardan biridir. Asarda muallif nafaqat tarixiy voqealarni tasvirlaydi, balki murakkab davr va muhit ichida yashagan ayol qismati, uning ruhiy olami hamda ijtimoiy mavqegini chuqur ochib berishga intiladi. Ayniqsa, Bibixonim obrazi orqali ayolning sabr-toqati, matonati, muhabbati va ichki iztiroblari badiiy ifoda vositalari yordamida taʼsirchan yoritiladi.

Tarixiy manbalarda Bibixonim nomi koʻproq Amir Temur davri, xususan, Bibixonim masjidida bilan bogʻliq holda tilga olinadi. Biroq yozuvchi ushbu tarixiy siymoni faqat hukmdor rafiqasi sifatida emas, balki mustaqil fikrga ega, oʻz orzu-armonlari va kechinmalari bilan yashagan inson sifatida gʻavdalantiradi. Shu jihatdan roman tarix va badiiyat uygʻunligida yaratilgan asar sifatida eʼtiborga loyiqdir.

Mazkur maqolada “Bibixonim” romanida Bibixonim obrazining badiiy talqini, uning xarakteri, ruhiy dunyosi hamda asardagi gʻoyaviy-estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, muallifning tarixiy haqiqat va badiiy toʻqimani uygʻunlashtirish mahorati ochib berishga harakat qilinadi.

Oʻzbek tarixiy romanlarida ayol obrazining badiiy talqini masalasi zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb yoʻnalishlaridan biridir. Ayniqsa, tarix sahnasida muhim oʻrin tutgan ayol shaxslarning adabiy qiyofasi orqali muallifning davr,

jamiyat va gender haqidagi qarashlari ifodalanadi. Shahodat Isaxonovanning “Bibixonim” romani ana shunday asarlardan bo‘lib, unda Bibixonim obrazi faqat tarixiy shaxs sifatida emas, balki murakkab ichki olamga ega, taqdiriy sinovlar qarshisida shakllangan ayol timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolaning maqsadi — romanda Bibixonim obrazining badiiy talqinini ochish, muallif tomonidan yaratilgan estetik va g‘oyaviy qatlamlarni tahlil qilishdan iborat.

Roman asosida tarixiy haqiqat yotsa-da, Shahodat Isaxonova Bibixonim siymosini qat’iy tarixiy doira bilan cheklab qo‘ymaydi. “...tarixiy temaga qo‘l urgan yozuvchi o‘tmish hayotdan bugungi hayotimizga bog‘liq, aniqrog‘i, hayotning barpo bo‘lishiga xizmat qilgan tomonlariga nazar tashlaydi. Tarixni yaratishda yozuvchi yoki san’atkorning realistik quvvati bugungi hayotning tarixdagi ildizini aniq ko‘ra bilishda va haqqoniy aks ettirishda namoyon bo‘ladi. Zotan, tarixning bugungi hayot tasdiqlaydigan tomoni, tarixiy davrning ilg‘or tendensiyalari – go‘zalliklaridir” [Kўшжонов М. 1979:163] Tarixiy manbalarda Bibixonim ko‘proq Amir Temur davri bilan bog‘liq timsol sifatida esga olinadi. Adiba esa bu tarixiy obrazni badiiy tafakkur orqali boyitib, uning ichki kechinmalari, ayollik iztiroblari va ruhiy qudratini ochishga intiladi. Bu holat romanda tarixiylik va badiiylikning uyg‘unlashuvini ta’minlaydi. Bibixonim tarix sahnasidagi shaxs bo‘lish bilan birga, badiiy obraz sifatida o‘quvchiga yaqinlashadi.

1. Bibixonim — ayol hokimiyati va irodaning timsoli

Roman talqinida Bibixonim faqat hukmdor ayoli emas, balki siyosiy tafakkur va irodaga ega shaxs sifatida gavdalanadi. Muallif uni qaror qabul qila oladigan, vaziyatni chuqur tahlil qiladigan ayol sifatida tasvirlaydi. “Saroymulkixonim o‘tgan yili kuzda payg‘ambar yoshiga to‘lgan bo‘lsa-da, hali qarilikka bo‘y bermagan qomati tik, yanoqlari bilinar-bilinmas bo‘rtib turgan oppoq kulcha yuzlari ajinsiz, bodom qovoqlari ustida hiloldek egilgan qoshlari ingichka va qora edi... Ovozi sokin va ohangli, nafasidan taralayotgan so‘zlar suhbatdoshining ko‘ngliga oqib kirayotgan kabi uni bir zumda o‘ziga el etardi”. [Isaxonova Sh.2011: 31] “Bibixonim” romanidan olingan ushbu parchada uning tashqi go‘zalligi orqali, ichki dunyosi ham shunga monand go‘zal ekanligi ta’kidlab o‘tiladi. So‘zlari ma’noli va ohangi yoqimliliği Bibixonimning naqadar dono va samimiy obraz ekanligini anglatadi. Bu jihat Bibixonim obrazini passiv tarixiy qahramon darajasidan faol subyekt maqomiga ko‘taradi. “Har qanday adabiy asarning badiiy yuksakligi, umrboqiyliği, o‘ziga xos fazilatları, sehri va jozibasi, ijodkorning badiiy mahorati, yozuvchining individual uslubi, asar tilining boyligi, muallif nutqining o‘ziga xosligida namoyon bo‘ladi” [Rahimov Z. 2022: 199]

Bibixonimning ichki monologlari, sukut orqali berilgan holatlari uning kuchli ruhiy dunyosini ochib beradi. Ayniqsa, u jamiyatdagi ayol mavqeyi, taqdir va mas'uliyat o'rtasidagi ziddiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

2. Psixologik tasvir va ichki konfliktlar

Shahodat Isaxonova romanda psixologik tasvirga alohida e'tibor qaratadi. B. Sarimsoqov asarning nutqiy jihatini badiiylikning asosiy mezonlari qatorida quyidagicha izohlaydi: “.. badiiylik voqelikni takror obrazlilik bilan qaytadan idrok etish, milliy tilning nutqiy imkoniyatlaridan o'rinli foydalana olish, shakl va mazmunning o'ziga xos uyg'unlashishi, obrazlarning yorqinligi tarixiylik prinsiplarga to'la mos kelishi, qisqasi, tarixiy haqiqatning kitobxonni ishontira oladigan darajadagi badiiy haqiqatga aylantirilganligida namoyon bo'ladi” [Sarimsoqov B. 2022: 54]Bibixonim obrazi ichki ziddiyatlar orqali ochiladi: hokimiyat va ayollik, muhabbat va burch, sabr va isyon o'rtasidagi qarama-qarshiliklar uning ruhiy qiyofasini murakkablashtiradi. Bibixonimning shahzodalarning kelajagi haqida qayg'urishi, mamlakat taqdiri haqida hukmdordan kam tashvishlanmasligi asarda haqqoniy aks ettiladi: “ Alarga safarda o'zlarini ko'rsatmoqlari uchun va davlatni, yurtni, ulusni, harbni mustaqil idora etmoqlari uchun imkon bering. Toki har bir yumushda faqat sizning qudratingizga, aqlingizga va tadbiringizga suyanib qolishmasun”.[Isaxonova Sh. 2011:128]

Shahodat Isaxonovaning “Bibixonim” romanida Bibixonim obrazi zamonaviy badiiy tafakkur asosida qayta talqin qilingan murakkab va ko'p qatlamli obrazdir. U ayolning tarixdagi o'rni, ichki qudrati va ma'naviy jasoratini ifodalovchi timsol sifatida namoyon bo'ladi. Roman orqali muallif tarixiy ayol obrazini yangi estetik va g'oyaviy pog'onaga ko'taradi. Bu tarixiy romanlardagi ekspressiv to'yintirilganlik, tarixiy va badiiy talqin uyg'unligi, obraz va obrazlilik, muallif va personaj nutqi jozibadorligi bilan zamon va makon sarhadlarini yorib o'tib, bugungi kun kitobxonlariga o'tmish voqeligini ishonarli tarzda hikoya qiladi, mushohadaga chorlaydi. Shuningdek, Isaxonova ijodi zamonaviy o'zbek tarixiy roman janrida milliy badiiy tafakkurni boyituvchi yangi bosqichni boshlab bergan ijodiy fenomen sifatida qadrlanishi mumkin.[Matmusayeva N. 2025:1857]

Mazkur tahlil Bibixonim obrazining o'zbek tarixiy romanlarida ayol qahramonlar talqinidagi muhim bosqichlardan biri ekanini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isaxonova Sh. “Bibixonim” // Davr Press Tosh, 2011- 31,128-b
2. Matmusayeva N. Tarixiy romanlarda milliy ruh ifodasi: Shahodat Isaxonova ijodida folklor elementlari DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17499332> <https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/issue/view/20>

3. Кўшжонов М. Адабиётда эстетик категориялар. Адабиёт назарияси. Икки томлик. 2-жилд. Адабий жараён. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.163.
4. Rahimov Z. Odil Yoqubov tarixiy romanlari poetikasi: filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Farg‘ona, 2022. – B. 199
5. Sarimsaqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari : risola / To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: H. Axmedov. – Tosh-kent: Bookmany print, 2022 B-54